





# Yevropa Ittifoqi

**“O‘zbekistonning qishloq joylarida suv resurslarini barqaror boshqarish” dasturi**

YEVROPA ITTIFOQI

**1-Tarkib:**
“SRB va SRIB bo‘yicha qonunchilik va institutsional bazani milliy darajada yaxshilash”

german cooperation DEUTSCHE ZUSAMMENARBEIT — Implemented by giz

**2-Tarkib:**
“SRB masalalari bo‘yicha texnik salohiyatni oshirish”

UNDP

**3-Tarkib:**
“O‘zbekistonda suv va ekologiyaning barqaror rivojlanishi uchun savodxonlikni oshirish va hamkorlik”

carec

Milliy hamkor - O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi.

## Loyihani Yoritish

33 milliondan ortiq kishi - O‘zbekiston aholisi
9 hududga e’tibor qaratgan holda






## Asosiy yo'nalish

Suvdan noto‘g‘ri foydalanishga olib keluvchi odatlar va stereotiplarni o‘zgartirish.




Qishloq joylarda aholi va fermer xo'jaliklari o'rtasida suvdan samarali foydalanish




Shahardagi uylar va xususiy uylarda oqilona suv iste'moli

## SUVNI QANDAY TEJASH KERAK?

O'zbekistondagi suvning qariyb 90 foizi qishloq xo'jaligi ehtiyojlariga yo'naltirilgan. Ba'zi texnologiyalar qishloq xo'jaligi yerlarida va maishiy maydonlarda suvni samarali va foydali ishlatish imkonini beradi. Nima uchun u bog’bonlar va fermerlar uchun foydali?

## TOMCHILAB SUG‘ORISH

**Sug‘orishda suv taxminan 50 % gacha tejaladi.**




Ushbu sug‘orish uslubida suv dozalovchi-tomchilagichlar yordamida kam-kamdan bevosita o‘simlikning ildizi atrofiga uzatiladi.



## “GIDROGEL” TEXNOLOGIYASI
## Sug‘orishda suv taxminan 50 % gacha tejaladi.

Gidrogel o‘zi nima? Bu kristallga o‘xshash bo‘lgan polimer granulalar. Gidrogel namlikni o‘ziga so‘rib oladi va xajmi 300 barobargacha oshish xususiyatiga ega. Shu tariqa,1 kg gidrogel o‘ziga 250 litrgacha suvni shimib olishi mumkin va qurg‘oqchilikda uni ekinlarga uzatadi. U o‘simliklar, organizmlar, yer va yer osti suvlari uchun zaharli emas. Gidrogel maxsus qo‘shimchalar bilan to‘yintiriladi.




Ochiq tuproq, issiqxonalarda, xonaki gullar uchun, avtomobil va temir yo‘llar bo‘ylab hududlarni obodonlashtirishda, suv resurslari cheklangan cho‘l va tog‘li joylarda qo‘llaniladi.






## UYDA SUVNI QANDAY TEJASH MUMKIN?

Bir kishining bir kunda o‘rtacha olganda chanqog‘ini bosishi, gigiyena va sanitariya ehtiyojlari uchun ishlatadigan suvi 50 litrni tashkil qiladi.

**Suvni qanday tejash mumkin?**

- Uyda suv bekorga sarflanmasligini nazorat qiling;
- Tishingizni yuvayotganda stakandagi suvdan foydalaning va kranni ochiq qoldirmang (bir oyda 600 litr atrofida suv tejaladi);
- Soqol olayotgan vaqtda kranni o‘chiring (bir oyda 380 litr atrofida suv tejaladi);
- Vannaning o‘rniga dushdan foydalaning. 5 daqiqalik dushga 50 litrgacha suv sarflanadi, vannani to‘ldirish uchun esa — 200 litrgacha;
- Yon tomoniga kuch tushadigan kir yuvish mashinalariga boshqalariga qaraganda kam suv ketadi. Mashinani kirga to‘ldirgan holda kir yuving;
- Sabzavot va mevalarni oqib turgan suvda yuvmang, idishga 3 litr suv solib yuving, oqib turgan suvda yuvsangiz har daqiqada 10-15 litr suv yo‘qotiladi;
- Oziq-ovqatlarni muzidan tushirish yoki sovutish uchun oqib turgan suvdan foydalanmang;
- Idish-tovoqlarni yuvayotganda va uyni namlab tozalash vaqtida suvni tejashga o‘rganing;
- Kran va quvurlarni tezlik bilan ta’mirlang: suvi oqib qolgan krandan bir daqiqada 30 tagacha tomchi tomadi. Bu taxminan 27 ta suv to‘ldirilgan vanna demakdir.










## “Virtual suv” nima degani?

Oziq-ovqat, kiyim-bosh tariqasida va ho‘jalik hamda ishda foydalanadiganlarimiz – bularning barchasi tarkibida “Virtual suv” bor. Bu juda katta xajmdagi suv bo‘lib, ular har kuni turli mahsulotlar, hayvonlar, qushlarni yetishtirish, shuningdek tovarlarni ishlab chiqarish sanoati uchun sarflanadi.











## Loyihaning maqsadi

O'zgaruvchan iqlim sharoitida suvni tejash, undan oqilona foydalanish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishning ahamiyati borasida savodxonlik darajasini oshirish.

## Asosiy vazifa

Loyihaning asosiy vazifasi o'zbek dunyoqarashiga xos bo'lgan "hurmat" tushunchasini o'zida mujassam etgan




**Shahar** | **Suvni hurmat qilish – bu…** | **Qishloq joylar**



…bir-birini hurmat qilish
… farzandlaringning kelajagini hurmat qilish
…vatanni hurmat qilish
…qo'shnilarni hurmat qilish degani



## UzWaterAware yondoshuvlari

Umumlashma obrazlardan foydalanish - ikki oila a'zolari:
- turli yoshdagi (bir necha avlod),
- turli jinsdagi qahramonlar (erkaklar va ayollar),
- turli kasb egalari (mansabdor shaxslardan tortib, biznesmenlar va uy bekalarigacha, maktab o'quvchilaridan pensionerlargacha).

## Maqsadli auditoriya

(axborotlarni tarqatish kanallari)






UzWaterAware (Yevropa Ittifoqi va MOMEM)

- DO matbuot xizmatlari → OAV → shahar va qishloq aholisi (aholi)
- OAV, Ijtimoiy tarmoqlar → shahar va qishloq aholisi (aholi)
- NNT → shahar va qishloq aholisi (aholi); fermerlar va qishloq joylardagi kundalik foydalanuvchilar (aholi); bolalar, yoshlar va o'qituvchilar (aholi)
- Maktablar, bolalar ijodiyoti markazlari → bolalar, yoshlar va o'qituvchilar (aholi)




eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan

www.carececo.org

www.water.gov.uz




facebook.com/UzWaterAware

**Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologiya markazining O'zbekistondagi filiali**
100043, O'zbekiston, Toshkent,
Bunyodkor shoh ko'chasi, 7, 219-ofis
**uzbekistan@carececo.org**
+998 71 277 37 87

**#respectwater**
**#suvnihurmatlang**
**#уважайтеводу**

